

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TIBBIYOTGA OID MAQOLLARNING DISSKURSDA FAOLLASHUVI

**Ibragimova Lola Asatullo qizi**

Samarqand davlat chet tillar instituti  
Ikkinchi chet tillar kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Keltirilgan maqolada tibbiyotga oid maqollarning kommunikativ semantikasi, so'zlovchining salomatlikka qaratilgan harakati haqidagi fikri va ifodalanish vaziyati, nutqiy jarayonda ingratsiyalashuvi keltiriladi. Shu bilan bir qatorda maqollarning semantik mazmun turlari va ularning tarkibiy jihatdan farqlanishi keng ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** perlokativ ta'sir, didaktik baholovchi, pragmatik mazmun, estetik vazifas, ekspressivlik, illokutiv nutq.

**Аннотация:** В статье представлена коммуникативная семантика пословиц, связанных с медициной, мнение говорящего о оздоровительных действиях и ситуации их выражения, интеграции в речевой процесс. Кроме того, широко рассматриваются типы смыслового содержания пословиц и их структурные различия.

**Ключевые слова:** перлокативный эффект, дидактический оценщик, прагматическое содержание, эстетическая функция, выразительность, иллокутивная речь.

**Abstract:** Given the article presents the communicative semantics of proverbs related to medicine, the speaker's opinion about health-oriented actions and the situation of expression, integration in the speech process. In addition, the types of semantic content of proverbs and their structural differences are widely considered.

**Key words:** perlocative effect, didactic evaluator, pragmatic content, aesthetic function, expressiveness, illocutionary speech.

Har bir tildagi maqollar ushbu xalqning madaniyat axloqiy qarashlari ma'naviyati hamda dunyo qarashlari, shuningdek til sohiblarining hayotiy tajribasi, atrof muhit va voqeliklarga munosabatini tilga ko'chirish imkoniyatlarini namoyish etadi. Maqollar ma'lum xalq etnosning ko'p asrlik tajribasi va undan didaktik maqsadda foydalanishni nazarda tutadi. Maqollarning semantikasi ijtimoiy didaktik baholovchi, axloqni targ'ib etuvchi modal mazmunga ega. Modallik munosabat insonning kommunikativ-pragmatik maqsadini aks ettiradi. Paremiologik matn yashirin, umumlashtirilgan, abadiy baholovchi ma'noga ega bo'lib, undan turli xil nutq vaziyatlarida foydalanish mumkin. Shu bois maqollardagi zamon shakllari indikativ maylda qo'llanishi keng tarqalgan. Maqollarning asosiy qismidagi fe'ning hozirgi zamon shakli qo'llanishi o'ziga xos pragmatik mazmun kasb etishi mumkin. Maqollarda, voqelik qarama-qarshi muloqot mavzusini, muloqot kechimini rivojlantiruvchi vazifasini bajarishi mumkin. Maqollar ma'lum turdagi matda tez-tez ishlatilsa u alohida pragmatik mazmundagi matnning funksional tarkibini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan: O Henryning hikoyalar to'plamida maqolning diskursdagi shakli quyidagicha keltirilgan: "There was something foreign about the affair, for the Park is rarely used in the morning except by unimportant people who love to be healthy, poor and wise". [O HENRY 1995; 139].

Maqollar matnda ma'lum maqsadga ega bo'lib, ular ma'lum bir davrga ishora qilmaydi, balki muloqot jarayonidagi muhim hodisani axloqiy xususiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek maqollari struktur jihatdan o'ziga xos shakllariga ega. Ulardagi struktur o'xshashliklar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) sodda gaplardan iborat maqollar; Cleanliness is next to godliness. Yashirin dardga davo yo'q.

b) buyruq shakliga ega maqollar; Eat to live, not live to eat.

d) qarama-qarshi mazmunga ega qo'shma gap shaklidagi maqollar; A healthy mind is better than a full purse; Hunger is misery, a full belly is trouble. [Oxford Dictionary of Idioms. 1999; 121].

e) inkor-buyruq shaklidagi maqollar; Better ugly, but alive; yeb bo'lib ovqat yugurma faqat. [[www.EnglishIdioms & Proverbs.com](http://www.EnglishIdioms & Proverbs.com)]

f) sinonimik takrorga ega maqollar; sihat tilasang kop yema, izzat tilasang kop dema; Achchiq ter chiqqanda achchiq til ham chiqadi. [SH.SHomaqsudov, Sh.Shorahmedov; 2001; 21].

Maqollarni diskursda qo'llanishini matnlardagi tahlilga kiritilgan mustaqil matn sifatida talqin qilish mumkin. Maqolning estetik vazifasi xalqning ko'p asrlik tajribasini saqlash va kelajak avlodga yetkazishdan iborat bo'lsa uning kommunikativ vazifasi muloqot jarayoniga qo'shimcha ekspressivlik bag'ishlash hisoblanadi. Maqollar ikki qisimli lingvistik shaklga ega bo'lgan matn sifatida nutqqa emotivlik bag'ishlaydi. Maqol matni qisqa, eslab qolish oson, bu uning tasviri va mantiqiyligi bilan ham ular nutqqa jozibadorlik bag'ishlaydi. Chunki ularning sintaktik qurilmalari qofiya va ritm yordamida shakllangan bo'ladi. Masalan: Along the driveway in the early morning spun a victoria drawn by a pair of fiery bays. There was something foreign about the affair, for the Park is rarely used in the morning except by unimportant people who love to be healthy, poor and wise.(O'henry, 1995;140]

Tibbiyotga oid maqollarning grammatik shakllari ingliz va o'zbek tilida farq qilsada, nutq jarayonidagi vazifalari bir xil sanaladi. Tibbiyotga oid maqollarning o'zgarmasligi uning didaktikligi ibratliligi bilan bog'liq. Maqollar matn modalligi ta'sirida grammatik shaklga egaligi, ya'ni mayl, zamon, shaxslarni qamrab olishi bilan izohlash mumkin. Misol uchun: He took the Kid's left hand and examined the back of it closely. "I can do it", he said excitedly. "Your flesh is as hard as wood and as healthy as a baby's. It will heal in a week". [LXXVI 'Next to Reading Matter'; 1995. 553]

Shunday qilib tibbiyotga oid maqollarning kommunikativ semantikasi so'zlovchining salomatlikka qaratilgan harakati haqidagi fikri bilan ifodalanadi. Tibbiyotga doir maqol muayyan nutqiy vaziyatga integratsiyalashganda targ'ibot ma'nosini oladi. Ushbu kategoriyaga tegishli maqolni nima maqsadda qo'llashi bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tili maqollari va ingliz tili maqollari orasida ba'zi shakily farqlar mavjud. Tarkibiy jihatdan farqlanuvchi maqollarning quyidagi turlarini ajratishimiz mumkin.

1. Soda gaplar; Kasal kulgu sevmas
2. Inkori buruq maqsadli; Kasalni tabib emas, habib tuzatadi
3. Kontrastiv qo'shma gap; Dard kelar, darmon ketar
4. Fe'l ishtirokisiz maqollar; Kasal bitta-davosi mingta
5. Sifatlar uyushib kelishi; Kasallikni yaxshi-yomoni yo'q

O'zbek tilida ushbu maqollar umumiy ma'noda aniq shaxsga qaratilmagan holda adresantga ta'sir kuchining namoyon bo'lishini nazarda tutadi. Ushbu tildagi maqollarda so'zlovchining maqomi uning manfaatlarini ko'zlab kelgan adresantdan yuqori bo'ladi. Maqollar orqali adresant maslahat, tarbiya, ogohlantirish yoki muayyan harakatni amalga oshirish kabi tushunchalar olishi mumkin. [Кулькова М.А., Денисова Е.А Структурно-семантическая характеристика русских и немецких пословиц, содержащих прохибитивные конструкции// Языкознание. № 12 (78),-2017.-С 131-133.]

Bunday maqollar nutqda, matnda perlokativ ta'sirga ega bo'lib, adresantni nomaqbul harakatdan ehtiyot bo'lish, muqobil harakatni amalga oshirishga undaydi. Tibbiyotga oid

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

maqollardagi buyruq shakldagi konstruksiyalar ko'pchilik hollarda ma'lum taqiq, tasviriy kuchi, hrakatni bajarilmaslikka undash yoki shularning aksini bildiradi. nutq vaziyatida adresant biror harakatni bjarishi yoki bajarmasligi targ'ib etadi.

Qayd etish joizki, salomatlik bilan bog'liq maqollar nutqda maslahat, kinoya, tashvish kabi vazifalarni bajaradi. Tibbiy maqollar badiiy diskursda ma'lum illokutiv, perllokutiv nutqni amalga oshiradi. Nutqda tibbiyotga oid maqollar ingliz va o'zbek tillari mentalitetini namoyish etuvchi alohida lingvistik hodisa ekanligi aniqlandi.

## Adabiyotlar:

1. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani . -T.: 2001
2. Кулькова М.А., Денисова Е.А Структурно-семантическая характеристика русских и немецких пословиц, содержащих прохибитивные конструкции// Языкознание. № 12 (78),-2017.-С 131-133.
3. LXXVI 'Next to Reading Matter' Page
4. Jennifer Speake Oxford Dictionary of Idioms. 1999;121.